

## O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING AHAMIYATI VA IQTISODIY

### RIVOJLANISHGA TA'SIRI

Sayfiyev Jasur Ravshanovich

Vazirlar Mahkamasi Huzuridagi Oliy maktab magistranti

#### KIRISH

Raqamli iqtisodiyot – mamlakat uchun iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy tengsizlikni qisqartirish hamda globallashtirish darajasiga tenglashishda asos vazifasini o'taydi. Oxirgi o'n yillikda Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jaxon Banki, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, G8 mamlakatlari va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish mamlakat taraqqiyotiga qanday ta'sir ko'rsatishi yuzasidan olib borilayotgan tahliliy tadqiqotlar jamiyat farovonligini ta'minlashdagi dolzarbligini ko'rsatmoqda. Raqamli texnologiyalarning tez tarqalishi va tobora rivojlanib borishi qamrov doirasining kengayib borishi natijasida, uning iqtisodiyotga ta'siri o'sib bormoqda. Bu esa raqamli iqtisodiyot mezonlarini o'lchash, samaradorlik darajasi, YaIM tarkibidagi ulushini aniqlash, raqamli mahsulot va xizmatlar tarkibini shakllantirish, uning konseptual asoslarini belgilash, raqamli iqtisodiyot o'zgartirayotgan huquqiy-siyosiy masalalar yuzasidan ko'plab ilmiy va amaliy ishlarga turtki bo'lmoqda.

**Kalit so'zlar:** uy xo'jaliklari, raqamli iqtisodiyot, innovatsiyalar, soha va tarmoqlar, sun'iy intellekt.

Har qanday mamlakatda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishida iqtisodiy-ijtimoiy tahlil, mamlakatdagi siyosat va uning tarmoq va sohalarga ta'siri muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun aksariyat mamlakatlar iqtisodiyotida alohida xalqaro indekslar reytingi tashkil qilingan. Jumladan, raqamli iqtisodiyot va ijtimoiy indeksi (DESI), Raqamli evolyusiya indeksi (DEI), AKT rivojlantirish indeksi, Raqamli intellekt ko'rsatkichi, Raqamli qabul qilish indeksi (DAI) shular jumlasidandir. Bundan tashqari 2017 yilda Buyuk Britaniyaning iqtisodiy va ijtimoiy tadqiqotlar kengashining moliyaviy ko'magi bilan Global Challenges fondi tadqiqot tashabbusining bir qismi bo'lgan Raqamli iqtisodiyotning rivojlanish oqibatlari (DIODE) strategik tadqiqot tarmog'i yaratildi. Barcha indeks va tadqiqotlar raqamli iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatuvchi indikatorlarni tahlil qilish natijasida uning mazmuni va xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Jahondagi ko'plab olim va mutaxassislar o'zlarining fan yo'nalishlaridan kelib chiqib, soha va tarmoqlar bo'yicha raqamli iqtisodiyotga ta'riflar berib, uning ta'siri va o'rni haqida o'z mulohazalarini bayon qilishmoqda. Raqamli iqtisodiyotning

hozirgi tendensiyasidan kelib chiqib, ta'riflash va xususiyatlarini o'rganish sohaning kelgusida rivojlanishi uchun tayanch bilim vazifasini o'taydi.<sup>1</sup>

2020 yil mamlakatimizda "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qilinib, bu borada katta ishlar boshlandi. Xususan, 28 aprelda davlatimiz rahbarining "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Joriy yil yakuni bo'yicha har bir tarmoq va hudud rahbari raqamli iqtisodiyot sohasida keskin o'zgarish qilishi zarurligi aytiladi. Prezident bu yangilanishlarni odamlar o'z hayotida, byurokratiya va korrupsiya kamaygani misolida, davlat xizmatlarini ko'rsatish tezlashganida sezishi lozimligini ta'kidladi.

Tuman va shahar hokimlari bir oyda 2-3 kun faqat raqamlashtirish bilan shaxsan shug'ullanishi belgilandi. Ularning faoliyatiga hududda raqamlashtirish qay darajada yo'lga qo'yilganiga qarab baho beriladi. Bu sohada yaxshi natija ko'rsatgan rahbarlarga 30 foizgacha ustama joriy qilinadi.

Davlatimiz rahbari har doim avvalo aholi eng ko'p to'qnash kelayotgan sohalarni raqamlashtirish, odamlarning og'irini yengil qilish zarurligini ta'kidlaydi. Shu talabdan kelib chiqib, ishchi guruhlar tomonidan 530 ta hududiy va 280 ta tarmoq loyihasi tayyorlangan.

Xususan, joriy yil yakunigacha 14 va kelgusi yil birinchi choragida yana 14 tumanda odamlar eng ko'p murojaat qiladigan sog'liqni saqlash, kadastr, ijtimoiy himoya, qishloq xo'jaligi, ta'lim yo'nalishlarini raqamlashtirish bo'yicha 239 ta loyiha amalga oshiriladi.

Masalan, "Elektron poliklinika" tizimini joriy qilish orqali qog'oz hujjatlar 40 foizga, navbat kutish 60 foizga qisqaradi. Buning uchun markaziy shifoxona va poliklinikalarni to'liq raqamlashtirish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining birinchi o'rinbosari Olimjon Umarov ta'kidlashicha, raqamli iqtisodiyot alohida faoliyat turini emas, balki ishbilarmonlik, sanoat ob'ektlari, xizmatlarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Agar oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot, ma'lumotlar bo'ladi.

Raqamli iqtisodiyot yirik sanoat ob'ektlari ish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishda o'sish, faoliyat shaffofligini ta'minlash, mahsulot tannarxini kamaytirish imkonini beradi.

Nufuzli xalqaro tashkilotlar olib borgan tahlillar natijalariga ko'ra, raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga oshiradi, shuning barobarida, xufyona iqtisodiyotga barham beradi, - deydi "Taraqqiyot strategiyasi" markazi ijrochi direktori Eldor Tulyakov.

<sup>1</sup> Tojiboeva Dilorom. "Raqamli iqtisodiyot institutsional nazariyaning yangi yo'nalishi sifatida" Axborot texnologiyalar iqtisodiyoti. 2020. 47-b.

Xalqaro amaliyotga yuzlanadigan bo'lsak, hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot elektron tijorat va xizmatlar sohasi bilan cheklanib qolmay, balki hayotning har bir jabhasiga, xususan, sog'liqni saqlash, fan-ta'lim, qurilish, energetika, qishloq va suv xo'jaligi, transport, geologiya, kadastr, arxiv, internet-banking va boshqa sohalarga jadal kirib bormoqda va ularning har birida o'zining yuqori samaralarini bermoqda. Davlat o'z fuqarolari uchun elektron xizmatlar ko'rsatishi va elektron mahsulotlarni taklif etishi - bu raqamli iqtisodiyotning asosiy qismi hisoblanadi. Mamlakatimizda ushbu sohani keng rivojlantirish korrupsiya illatiga barham beradi.<sup>2</sup>

O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston-2030" dasturini ishlab chiqilishi va hayotga tatbiq etilishi, eng avvalo, puxta va mukammal tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni shakllantirish, qolaversa, innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish bo'yicha davlat organlari va tadbirkorlik sub'ektlarining uzviy hamkorligini ta'minlash, barcha soha va tarmoqlarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni raqamli texnologiyalar bilan qamrab olish, bu borada zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan, intellektual salohiyatli kadrlarni yetishtirish, shu orqali, mamlakatda "axborotlashgan jamiyat" muhitini yaratishga xizmat qiladi.

## XULOSA

Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, shubhasiz raqobatbardoshlikni oshiradi. Biroq raqamli texnologiyalarni yanada kengroq joriy etish - bu hammasi emas. Raqamli inqilob salohiyatidan maksimal darajada foydalanish uchun mamlakatlar muvofiq ravishda ularga qo'shimcha ravishda qonunchilikni, jumladan, kompaniyalar o'rtasidagi adolatli raqobatni ta'minlashni takomillashtirish, ishlovchilar malakasini yangi iqtisodiyot talablariga moslashtirish va institutlarning mas'uliyatini, javobgarligini ta'minlash zarur.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Raqamli iqtisodiyot asoslari D.Usmonova B.Safarov G'.Porsaev.
2. Kompyuterli va raqamli texnologiyalar O.Hoshimov M.Tulaganov.
3. 2020-yil 28- apreldagi —Raqamli oqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish|| Prezidentimiz qarori.
4. Ta'lim jarayonida integratsiyalashgan metodlardan samarali foydalanish Omonov A.A Omonov Y.A RasulovU.M Elektron nauka: elektron nauc.
5. Raqamli O'zbekiston -2030|| strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risadagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni(PF-6079-son 05.10.2020).

<sup>2</sup> Sanobar JUMANOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri. Raqamli iqtisodiyot: taraqqiyot sari qisqa yo'l. 17 sentyabr 2020.

<https://conferencea.org>

6. [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)
7. [www.aim.uz](http://www.aim.uz)
8. [www.cyberleninka.ru](http://www.cyberleninka.ru)